

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

SIROJIDDIN SAYYID IJODIDA NAVOIY AN‘ANALARI

Ra‘no Fayzullayeva

NavDPI tayanch doktoranti

ranofayzullayeva8@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada Sirojiddin Sayyidning mumtoz adabiyotga, xususan, Navoiy ijodiga munosabati hamda shoir she‘riyatiga Alisher Navoiy ijodining badiiy ta‘siri aks etgan. Sirojiddin Sayyid Vatanning poetik obrazini yaratishda Alisher Navoiy ijodidan oziqlangani tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: Vatan, poetik tasvir, poetik mahorat, an‘ana, adabiy ta‘sir, badiiy obraz.

Аннотация: В статье отражено отношение Сироджиддина Сайида к классической литературе, особенно к творчеству Навои, а также художественное влияние творчества Алишера Навои на поэзию поэта. Проанализировано, что Сироджиддин Сайид был вдохновлен творчеством Алишера Навои в создании поэтического образа Родины.

Ключевые слова: Родина, поэтический образ, поэтическое мастерство, традиция, литературное влияние, художественный образ.

Annotation: The article reflects the attitude of Sirojiddin Sayyid to classical literature, in particular, to the work of Alisher Navoi, as well as Navoi’s artistic influence on the poet’s poetry. It was revealed that Sirojiddin Sayyid was inspired by the work of Alisher Navoi in creating a poetic image of the Motherland.

Key words: Motherland, poetic image, poetic skill, tradition, literary influence, artistic image.

Mumtoz adabiyotimizda umumbashariy mavzular Alisher Navoiy ijodida o‘ziga xos talqin etilgan. Jumladan, Vatan tasvirini yaratishda ham Navoiyning o‘z uslubi bor. Navoiy o‘zining turli tur va janrlardagi asarlarida o‘zi tug‘ilib o‘sgan yurt timsolining mukammal poetik tasvirini yaratadi. U millatning xalqparvar vakili sifati yurti uchun qayg‘uradi, uning obodligi va farovonligi uchun astoydil harakat qiladi va bu jihat asarlarida ham yaqqol ko‘zga tashlanadi:

Shahrlar otini mahallot etib,

Bo‘ldi chu yuz shahr Hiri ot etib.

Alloh-Alloh, ne Hiri, bu Hiri,

Bir-biridin turfa aning har biri.[1]

Adabiyotshunos olim Ibrohim Haqqulov Mir Alisher Navoiy ijodidagi Vatan mavzusining badiiy talqini haqida shunday yozadi: “Alisher Navoiy jismu joni bilan vatanga bog‘langan ana shunday barkamol Yurak – buyuk san‘atkor edi. Navoiygacha bo‘lgan ijodkorlarimiz u yoki bu shaklda Vatanni ulug‘lovchi asarlar yozganlar. Biroq ulardan hech biri Vatan va farzand orasidagi munosabatlarni Navoiy qadar yuksak ohanglarda tasvir etmaganlar”. [2]

Darhaqiqat, Alisher Navoiy davriga kelib badiiyatda juda katta o‘zgarishlar, poetik ifoda shaklining kengayishi, shu bilan bir qatorda she‘riy shakllarning

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

mukammallashishi kuzatiladi. Navoiy “Saddi Iskandariy” dostonida Ona-Vatanni ulug‘lar ekan, shunday misralarini kuzatamiz:

*Angakim vasat mehri raxshon kelib,
Munga lek mulki Xuroson kelib.
Xuroson badandur, Hiri jon anga,
Hiri jon, badandur Xuroson anga.*[3]

Buyuk iste’dod sahibining bu misralariga nazar tashlar ekanmiz, Vatanni e’zozlash, uning shon-shuhrati uchun kurashish, hattoki muallif uchun Vatan Hirotdan boshlanganligini, bu shaharni jon o‘rnida ko‘rganligini alohida qayd etish lozim. Vatanni aql-zakovat bilan sevganligi, el-yurtini ardoqlab, ularni e’zozlab hayot kechirganligini kuzatish mumkin. “Saddi Iskandariy” dostonining boshqa bir o‘rnida shunday yozadi:

*Vatan tarkini bir nafas aylama,
Yana ranju g‘urbat havas aylama...*[4]

Bu misralar tarkibiga singdirilgan mohiyatni anglashga intilar ekanmiz, Vatandan yiroq odamning holati naqadar og‘ir va ayanchli, iztirobli bo‘lishini badiiy tasvirlar orqali jonlantiradi.

Ijodiy o‘zlashtirish ham san’at. Unda an’analar va tajribalarning rivojlanishi, boyitilishi, takomillashuvi ro‘y beradi. Mumtoz adabiyot bu jihatdan bitmas-tuganmas xazinadir. Shuning uchun hozirgi adabiyotimizning yirik namoyandalari Alisher Navoiy ijodiga doim murojaat etishadi va undan o‘rganib, mumtoz adabiyot an’analarini o‘z ijodlarida davom ettirishga harakat qilishadi. Bu harakatlar o‘ziga xos yangi tajribalar tug‘ilishiga sabab bo‘ldi. Jumladan, Alisher Navoiy yaratgan buyuk “Xamsa”ni bugungi avlod tushunib yetishi uchun unga murojaat qilish va undagi ma’ni durlarini sharhlash tajribasini Omon Matjon boshlab berdi. Uning “Ming bir yog‘du” deb nomlangan ma’rifiy dostoni “Xamsa” mohiyatini anglashda juda katta ma’rifiy ahamiyatga ega. “Ayrim bir kishi “Xamsa”ni to‘laligicha ilg‘ab-uyqab olishi qiyin. Bu ko‘pchilik mehnatini, uyg‘un idrokni talab qiladigan ish! Har bir avlod bu borada o‘z faolligini ko‘rsatishi kerak”[5], deydi shoir dostonning muqaddimasida. Sirojiddin Sayyid ham bu tajribani davom ettirib, “Xamsa” hayratlari” turkumini yaratdi. Shoirning ulug‘ daho, so‘z san’atkorining muazzam badiiy obidasi qoshida hayratga tushishi bejiz emas. Omon Matjonning Navoiy “Xamsa”sining har bir satridan yog‘du taralishini his etib hayratga tushadi. Hayrat – aql bovar qilmaslik, mo‘jiza qoshida lol qolishdan tug‘ilgan holat. Adabiyotshunos Ibrohim Haqqul unga muxtasar ta’rif bergan: “Hayrat – kutilmagan g‘aroyibotlar, favqulodda tilsimli hodisalardan aqlning ajablanishi. Hayrat

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

– inson ruhining hududsiz koinot asrorlaridan taajjublanishi. Hayrat – ko‘ngil tilsimi”[6].

Har bir adabiyotshunos, har bir ijodkor Navoiy asarlarini o‘qib, uqib olishga intiladi.

Emas oson bu maydon ichra turmoq,

Nizomiy panjasig ‘a panja urmoq,

degan Navoiy fikrlari aforizmga aylanib ketgan. Alisher Navoiy panjasiga panja urmoq esa yana ham mushkul ish. Uning bir baytini sharhlash, birgina baytda ifodalangan ma’no-mazmun mohiyatini anglata olish nihoyatda qiyin. Ana shunday zalvorli vazifani uddalashni Sirojiddin Sayyid zimmasiga olgani uning naqadar jasoratli ekanligini ko‘rsatadi. “Hayrat ul-abror” dostoni maqolotlarining ba’zi baytlariga yozilgan sharhlar chindan ham hayratni oshiradi. Baytlarni sharhlar ekan, shoir o‘z hayratini yashirmaydi: “Satrma-satr, baytma-bayt–ustma-ust hayrat, varaqma-varaq, dostonma-doston, kitobma-kitob – to‘la hayrat. ...Navoiy hayratlari tugamaydi. “Xamsa” hayratlari tuganmasdir”[7].

Darhaqiqat, Sirojiddin Sayyidning mumtoz an’analar asosidagi hayratlar mahsuli bo‘lgan izlanishlari ijodkorning mohiyatni anglashdagi yetuk poetik mahoratidan dalolat beradi. Sirojiddin Sayyid “Xamsa hayratlari”da “Hayrat ul-abror”ning yigirmanchi maqolatidan o‘rin olgan quyidagi baytni keltiradi:

Shohki ish adl ila bunyod etar,

Adl buzuq mulkni obod etar.

Mazkur baytga shoir quyidagicha javob beradi:

Nimadir aslida yurtga sarvarlik –

Mehrparvarlikdir, millatparvarlik.

Qay elning shundayin siymolari bor –

Uning dunyo aro dunyolari bor. [4.25]

...Matonat shu tanti zotlarga tandir,

Ular timsolida mardlik jam faqat.

Ularning timsoli buyuk Vatandir,

Obod mamlakatdir, obod mamlakat. [4.25]

Islom-Sharq adabiyotida arba’in an’anasi mavjud. Bunda sahih hadislardan 40 tasi tanlab olinib, ular she’riy yo‘lda talqin etilgan. Fors-tojik adabiyotining ulkan vakili, Alisher Navoiyning piri-ustoz Abdurahmon Jomiy “Chihil hadis” yaratgan. Alisher Navoiy uni turkiychaga o‘girib, “Arba’in” (“Qirq hadis”) deb atagan. Sirojiddin Sayyid ham qirq hadisni saralab olib, arba’in (qirq hadisni she’riy yo‘lda sharhlash) an’anasini

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

davom ettirdi. Navoiy turkiy tilda nima uchun “Arba’in” yozishni niyat qilganligini shunday izohlaydi:

*Forsiydonlar aylabon idrok,
Oriy erdi bu naf’din atrok.
Istardim, bu xalq ham bori
Bo’lmagaylar bu naf’din oriy.*

Mazmuni: forsiyda so‘zlashuvchi ellar hadislar mazmunini o‘z tillarida she’riy uslubda yodlab o‘rganadi, atrok, ya’ni turkiy xalqlar bundan bebahralikdan or etmasliklarini istadim, deydi. Sirojiddin Sayyid esa qirq hadis sharhiga yozgan she’rlarini “Yaxshilik eskirmagay” deb nomlaydi va sababini quyidagicha izohlaydi:

*Dunyoda eng oliy So’z o’zingdirsan,
O’zing bir gap solding balki dilimga.
Xudoyim bir eshik ochilmoqdadir,
Xudoyim, yorug’ qil so’zni tilimga.[8]*

Yana bir muhim jihati shundaki, Sirojiddin Sayyid Navoiy sharhlagan hadislarini sharhlamaydi. Balki o‘zi mustaqil hadislar tanlab, uni sharhlab beradi. U Alisher Navoiy maqsad qilganidek, o‘z xalqiga tushunarli bo‘lishi uchun hadislar sharhini hozirgi davr adabiyotida yetakchi bo‘lgan barmoq vaznida yozdi. Bu esa shoirning salaflari an’anasiga sodiq qolgani holda zamonaviy o‘zbek she’riyatiga qo‘shgan muhim hissasidir.

Navoiyda Vatan vasfi, Vatan obrazining badiiy talqini barcha ijodkorlar singari Sirojiddin Sayyidga ham tuganmas ilhom bag‘ishlab kelmoqda, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Shoirning aksar she’rlarida mumtoz adabiyotda yetakchi bo‘lgan mavzularda ilgari surilgan fikrlar, g‘oyalar, estetik ideallar o‘ziga xos tarzda xarakterli detallar, pishiq, puxta, ishonarli badiiy obrazlar vositasida namoyon bo‘ladi. Mana shunday she’rlardan biri:

*...Hamma narsani ko’rdilar-u,
hamma narsani qurdilar-u, biroq
El-u yurtning bunyodi binosida
bir xas bo’lolmadilar[9].*

“Insonlarki...” deb boshlanadigan bu she’rda yurt qayg‘usi, Vatan obodligiga jonkuyarlik bo‘rtib turadi. “El-u yurtning bunyodi binosi” – bu Vatan. Ana shu Vatanning binosi eng go‘zal, eng mustahkam bo‘lishi lozim. Shoirning ideali juda yuksak. Hamma narsani qurgan bilan, ular qanchalik yuksak, mahobatli bo‘lmasin, el-u yurt bunyod bo‘lgan bino – Vatan barqaror bo‘lmasa, qilingan ish bir xascha bo‘lmaydi.

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

Vatan obodligi xalqning jipsligi, millatning ahilligi, or-nomusliligi, hukmdorning adolatparvarligi bilan belgilanishi Navoiy asarlarida badiiy yuksak tasvirlangan. “Vaqfiya” asarida Navoiyning ideal jamiyat, ideal hukmdor, ideal mamlakat haqidagi orzulari aks etgan:

*To hirs-u havas xirmanini barbod o‘lmas,
To nafs-u havo qasri baraftod o‘lmas,
To zulm-u sitam jonig‘a bedod o‘lmas,
El shod o‘lmas, mamlakat obod o‘lmas.*

Sirojiddin Sayyidning “Bevafolik” she‘ri g‘azal janrida yozilgan. Undagi falsafiy fikr, falsafiy mushohada kishini ancha o‘ylantiradi. Negaki, shoir zamona nosozligi, haq va adolatning toptalishi, odamlardagi loqaydlik, beparvolik, Vatan, xalq, jamiyat oldidagi mas‘uliyatsizligidan ranjiydi, ko‘ngli ozurdaligidan shikoyat qiladi. G‘azal boshdan oxir “vafo” so‘ziga yuklangan mantiqiy yukka qaratilgan. Vafo, sadoqat, mehr-oqibat, xalqparvarlik tuyg‘ulari Navoiyning juda ko‘p g‘azallarida bosh mavzu bo‘lgan. “Mehr ko‘p ko‘rguzdim, ammo mehribone topmadim” misrasida Navoiy hamdard, hamfikir topmaganligidan o‘ksinadi; “Elga qilsa bir jafo, yuz qatla faryod aylaram” deganida o‘zini xalq bilan, yurt bilan birga, hamnafas ekanligini ta’kidlaydi. Sirojiddin Sayyid she‘rida mana shu misralarga hamohanglik sezilib turadi. Unda ham haqiqat va adolat poymol bo‘lishidan qattiq va achchiq o‘kinch bor:

*Qay shoirkim, bobosiga ixlosi yo‘q,
Navoiyning navosiga vafosi yo‘q.
...Biz Vatanni ona deymiz, lekin nechun
Farzandining onosiga vafosi yo‘q? [4.49]*

Butun she‘r davomida “vafo” so‘ziga urg‘u berilgan. Do‘stning do‘stga vafosizligi, umr bo‘yi yiqqan mol-dunyoning vafosizligi, sultonning sultonga, gadoning gadoga vafosizligi, hatto bandasining Xudosa vafosizligi kishi dilini o‘rtab yuboradi.

Adabiyotshunos Nurboy Jabborov haqli ravishda: “Sirojiddin Sayyid Navoiyni ko‘p o‘qiydi, “Xazoyin ul-ma’oni”ni xatm qilgan kunni eng katta bayram deb biladi. Muhimi, she‘rlarida ulug‘ Navoiydan mumtoz she‘riyatimizdan bahramandlik ta’siri sezilib turadi”, [10] – deydi.

Darhaqiqat, Sirojiddin Sayyid nafaqat, “Xamsa” balki, “Xazoyin ul-ma’oni”, qolaversa, buyuk mutafakkir Mir Alisher Navoiyning ijodini mukammal o‘rgangan, buning natijasida uning ijodi bu she‘riyat ummonidan oziqlanadi va oziqlanmoqda. Bu esa Sirojiddin Sayyid she‘riyatining falsafiy-ma’rifiy ahamiyatini ham namoyon etgan. Shu bilan bir qatorda salaflarga izdoshlik an’anasini ham juda yuksak darajaga ko‘rsatganligidan dalolatdir.

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. T.: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 2020.
2. Alisher Navoiy. Xamsa. Saddiy Iskandariy. O‘n besh tomlik. O‘ninchi tom. – Toshkent: Badiiy Adabiyot nashriyoti, 1965.
3. Omon, Erkin havolarda, bitiklar, dramatik doston, she‘riy qissa, she‘rlar, Toshkent, G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1997
4. Haqqulov I. Zanjirband she‘r qoshida. Navoiy saboqlari. –Toshkent, “Yulduzcha”, 1989.
5. Haqqulov I. “Xamsa” badiiyatiga doir, “Alisher Navoiy “Xamsa”si(tadqiqotlar)”, Toshkent, “FAN” nashriyoti, 1986
6. Sayyid Sirojiddin. Asarlar, IV jild, Toshkent, “SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2019
7. Sayyid Sirojiddin, Asarlar, II jild, She‘rlar, dostonlar. Qirq hadis, G‘azal daftari. Nasriy ohanglarda–Toshkent, 2019
8. Sayyid Sirojiddin, Asarlar, III jild, Toshkent, 2019
9. Jabborov N. Zamon. Mezon. She‘riyat. – Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2015